



## O'quvchilarda o'z-o'zini anglash, boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish

**Kutbidinova Shoxista Muhammadjon qizi**

Farg'ona shahar 23-maktab psixologi

**Annotatsiya:** Bola shaxsining rivojlanishiga irsiyat, muhit va tarbiya kabi omillar ta'sir etadi. Bola shaxsining rivojlanishiga naslning ta'siri deganda, ota-onalarga o'xshashlikni ifodalovchi biologik belgilarning takrorlanishini tushunmoq kerak. Har bir bola otaonasidan meros shaklida ba'zi biologik sifatlarga (tananing to'zilishi, sochning, ko'zning, terisining rangi, bo'yi basti va boshqalar) ega bo'lgan holda dunyoga keladi

**Kalit so'zlar:** O'z-o'zini anglash, Shaxs faolligi va yunalganligi, O'z-o'ziga baxo berish, Kamolotga intilish, «Men» siymosi.

«Individ» va «Shaxs» tushunchalarining bir-biriga mos kelmasligi va ayni o'xshash ham emasligi faktidan shu narsa ayon bo'ladiki, shaxs tushunchasi birgalikdagi faoliyatning xar bir ishtirokchisi uchun ushbu faoliyatning mazmuni, qadryatlari va moxiyati orqali namoyon bo'ladigan shaxslararo barkaror boglanishlar tizimidagina anglanilishi mumkin. Tashqaridan shunchaki qaraganda bu sub'ekt – sub'ekt munosabatda ko'rinadi, chu qurok yondoshadigan bo'lsak, bevosita sub'ekt aloqasi shunchaki o'zida mavjud bo'lishidan ko'ra ko'prok allaqanday ob'ektlar (moddiy eki xayoliy) ob'ektlar vositasida namoyon bo'lishi aniqlanadi. Bu individning munosabati faoliyat ob'ekti (sub'ekt – ob'ekt – sub'ekt) orqali namoyon bo'ladi demakdir.

Muayyan sotsial birlik uchun etakchi faoliyatga ko'prok darajada «jalb qilingan» individual fazilatlargina shaxsning xususan o'ziga xos fazilatlarini sifatida yuzaga chiqadi. Misol uchun epchillik va kat'iylik o'spirinning individualligi belgilari bo'lgani xolda, jumladan u sportda tuman birinchiligida da'vogar jamoaga ko'shilmaguncha yoki uzoq joylarga turistik sayoxat paytida u tezoqar va muzdek daryodan kechib o'tishni ta'minlash



vazifasini o'z zimmasiga olmagunga qadar uning shaxsini ta'riflaydigan belgi sifatida yuzaga chiqmay keldi. Aynan shu sababli ham pedagog uchun axamiyatli bulgan o'quvchiga individual yondashishini amalga oshirish vazifasini amalga oshirib ko'rsatish kerak. Bu esa o'quvchining differentsial-psixologik xususiyatlari (xotirasi, dikkati, temperamenti, u yoki bu qobiliyatlarining rivojlanganligi va x.k.) ni xisobga olishni, ya'ni o'quvchining o'z tengdoshlaridan nimasi bilan fark kilishi va shu munosabati bilan tarbiyaviy ishni qanday tashkil etish kerakligini aniqlashni taqozo qiladi.

Tarbiya muhit kabi inson kamolotiga ta'sir etuvchi tashqi omillardan hisoblanadi. Tarbiyaning xususiyati shundaki, u aniq maqsadni ko'zlab, insonda ijobiy fazilatlarni tarkib toptirish yo'lida tarbiyachi rahbarligida muntazam amalga oshirib boriladi. Ammo tarbiya ta'sirining kuchi va uning natijasi irsiyat va muhit kabi omillarning hamkorligi bilan belgilanadi. Inson kamoloti irsiyat yo'li bilan orttirilgan va tabiiy layoqatlar bilan belgilanib qolmay, balki butun hayoti davrida uni qurshab olgan voqelik ta'sirida orttirgan xususiyat va sifatlar bilan ham belgilanadi. Shubhasiz tarbiya odamning ko'zi, sochi, terisining rangiga, uning badani to'zilishiga ta'sir eta olmaydi, lekin jismoniy taraqqiyotga ta'sir etishi mumkin. Chunki maxsus tashkil etilgan jismoniy mashqlar orqali bolaning salomatligi mustahkamlanadi va chiniqtiriladi. Insonning tabiiy qobiliyati faqat tarbiya orqali, uni ma'lum bir faoliyat turiga jalb qilish orqali rivojlanishi mumkin. Ma'lumki, bola layoqatini rivojlantirish, uni qobiliyatga aylantirish va hayotga mos holda o'stirish uchun mehnatsevarlik va ishchanlik kerak. Mehnatsevarlik va muttasil o'tirib ishlash kabi fazilatlar faqat tarbiya natijasida orttiriladigan fazilatlardir. Garchand inson kamolotiga ta'sir etadigan omillar bir qancha bo'lsa ham, lekin maxsus tarbiya muassasalarida tarbiyachi rahbarligida amalga oshiriladigan tarbiya jarayoni etakchi hisoblanadi. Birinchidan, tarbiya ta'sirida turli fazilatlar o'zlashtiriladi va bilim, ma'lumot egallanadi, mehnat va texnik faoliyat bilan bog'liq ko'nikmalar, malakalar ham maxsus uyushtirilgan tarbiya orqali hosil qilinadi. Masalan, ko'rlar, gunglar ham o'qitilib, sog'lom kishilar qatori hayotga tayyorlanadi. Uchinchidan, tarbiya yordamida muhitning salbiy ta'sirini ham yo'qotish yoki bartaraf qilish mumkin. To'rtinchidan, tarbiya doimo kelajakka qaratilgan maqsadni belgilaydi. Shu tufayli, u shaxsning kamolga etishini tyozlashtiruvchi



rol' o'ynaydi. Inson kamol topishida maktabning ahamiyati katta. Bolalar maktabga qadam qo'yar ekan, ular o'quv mehnati bilan band bo'ladilar. Bolalar maktabda fan asoslarini egallash bilan birga, ularda sekin-asta ilmiy dunyoqarash shakllanib boradi. O'qituvchi-tarbiyachilarning rahbarligida insonga xos bo'lgan yuksak fazilatlarni egallaydilar. Tarbiyaviy ishlarni reja asosida tashkil etish, bolani tarbiyalashda oilaga har vaqt yordam ko'rsatadi.

Shaxs o'ziga o'zi baxo berishni qay tarzda amalga oshiradi? Kishi o'zi xaqida ba'zi narsalarni allaqachon bilgani xolda boshqa kishiga razm solib boradi, o'zini u bilan solishtirib ko'radi, u ham uning shaxsiy fazilatlariga, xatti-xarakatlariga, faolligiga nisbatan befarq bo'la olmaydi, ana shularning xammasi shaxning o'ziga o'zi baxo berishiga kiradi va uning psixologik xolatini belgilaydi. Boshqacha aytganda, shaxsda xamisha referent gurux (real yoki xayoliy) bo'lib, u bilan xisoblashgan xolda ish ko'radi, undan o'ziga qadriyatli muljallar oladi.

Uziga xaddan ziyod past baxo berish norasolik deb atalmish xislatlar kompleksining, o'ziga kat'iyon ishonchsizlikning, o'zini o'zi koyishning va qo'rquvning kuchayishidan darak berishi mumkin.

Gurux va jamoalarda odamlarning bir-birlariga ta'siri turli vositalarda amalga oshiriladi. Eng muximi – muloqotdir. Nutq va imo-ishora orqali bir-birlarini ma'qullashlari yoki qarshilik ko'rsatishlari, kuchlarni birlashtirish yoki e'tiroz bildirish mumkin.

Uchta ko'rsatkich – o'ziga o'zi baxo berish, kutilgan baxo, guruxning shaxs tomonidan baxolanishi – shaxsning tuzilishiga kiradi va kishi buni xoxlaydimi-yukmi, bundan qat'iy-nazar, u o'zining guruxdagi kayfiyatini, o'zi erishgan natijalarning muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz ekanligini. O'ziga va tevarak-atrofdagilarga nisbatan nuqtai-nazarlarini belgilaydigan sub'ek-tiv vositalarni xisobga olishga ob'ektiv ravishda majburdir.

Shaxsning intilishlari darajasini faqat ularning ta'sirchanligi jixatidan emas, balki ularning mazmuni yuzasidan, jamoaning maqsadlari va vazifalari bilan aloqadorligi yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar kishi xulq-atvori motivlarini yaxshiroq anglab etish va shaxsda eng yaxshi fazilatlarni shakllantirishga qaratilgan ta'sir o'tkazish imkoniyatini



beradi. Bir xil xollarda pedagog uchun shaxsning intilishlari darajasini oshirish vazifasi juda muxim bo'lib chiqadi; agar o'quvchi o'ziga va o'z imkoniyatlariga unchalik yuqori baxo bermaydigan bo'lsa, bu muayyan darajada ziyon qurilishiga, muvaffaqiyatga erishishga ishonchning tamomila yuqolishiga olib boradi. Ketma-ket muaffaqiyatsizliklar xafsalasi pir bo'lishiga xam olib kelishi mumkin.

#### **Adabiyotlar:**

1. Umumiy psixologiya. A.V. Petrovskiy taxr. T.1992. 227-245 b.
2. Kazakov V. G. Psixologiya. M.1989. 200-209 b.
3. Rogov E. I. Nastolnaya kniga prakticheskogo psixologa. M.1999 b. 304-355b. I-tom.
4. Taychinov M. G. Vospitanie i samovospitanie shkolnikov. M. 1982
5. Ruvinskiy L. I. Psixologiya samovospitaniya. M. 1982